

ARAB TILINI O`RGATISHDA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Astanova Gulnora Aminovna,

BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası
professori, f.f.d.,

E-mail: guli4803@mail.ru tel.982744803

Annottsiya: Dars samaradorligini oshirish barcha fanlarni o'zlashtirish uchun muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan xorijiy tillarni o'rgatishda ham innovatsion usullarni mahorat bilan qo'llash zarurligiga ehtiyoj katta. Mazkur maqola xorijiy tilni, jumladan arab tilini o'rgatishda ham dars samaradorligini oshirish usullarida ilg'or usullarni qo'llashga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: xorijiy tili, sharq tili, usullar, kommunikativ, so'zlashuv, dars, arab tili

Аннотация: Повышение эффективности урока важно для усвоения всех предметов. С этой точки зрения существует большая необходимость умело использовать инновационные методы обучения иностранным языкам. Данная статья посвящена использованию передовых методов в преподавании иностранных языков, в том числе арабского, в целях повышения эффективности урока.

Ключевые слова: иностранный язык, восточный язык, методы, коммуникативная, беседа, урок, арабский язык.

Abstract: Improving the effectiveness of the lesson is important for the acquisition of all subjects. From this point of view, there is a great need to skillfully use innovative methods of teaching foreign languages. This article is devoted to the use of advanced methods in teaching foreign languages, including Arabic, in order to improve the effectiveness of the lesson.

Key words: foreign language, oriental language, methods, communicative, conversation, lesson, Arabic.

Xorijiy til sistemasini chuqur o'zlashtirgan, ammo og'zaki fikr almashuvda qiynalib qolayotgan talabalarning mavjudligi "Suhbat amaliyoti" fani bo'yicha tashkil qilinayotgan mashg'ulotlarni yangicha tamoyillarda, zamonaviy usullarda tashkil qilishni taqazo qilyapti. Shu jumladan sharq(arab) tilini o'rgatishda talabani jonli so'zlashuvga o'rgatish eng dolzarb masalalardan sanaladi. Arab tili tahsil oluvchi talabalar birinchi yarim yildayoq o'rganayotgan tilida gaplasha bilish ko'nikmalariga egà bo'lishlari lozim.

Mashg'ulotlarda talabalarga tayyor matnni berish va uni yodlab kelishga berish bilan cheklanmasdan, mavzuga oid yangi so'zlarni kommunikativ topshiriq orqali tushuntirish, bu kommunikativ topshiriqlarni o'zlashtirish bo'yicha ko'p martalik takrorga asoslangan mustaqil ishni tashkil qilish, mavzu bo'yicha tuziladigan matnni talabalarining o'zlari tomonidan yaratilishini ta'minlash zarur. Aynan dars jarayonida uyushtiriladigan bunday mustaqil ish talabalar juftliklari, guruhlari orasida tashkil qilinadiki, hozirgi paytda interfaol o'qitish usullari deb atalayotgan darsning bu bosqichiga umumiy vaqtning oltmish foizini ajratish tavsiya qilinyapti.

Bugungi kunda kommunikativ ta'lim aynan ana shu maqsad va vazifalarga javob bera oladigan metodik sistema sifatida tan olinib kelinayapti. Shu nuqtai nazardan o'quv jarayonini rolly o'yinlar, bahs munozara shaklida uyushtirish, aniq vaziyat tahlili (keys stadi), trening, aqliy hujum kabi interfaol usullar o'quvchilarning o'zaro faolligini muloqat jarayonida shakllantirishni ko'zda tutayotgan bo'lsa-aa, shakllangan nutq malakalarni amalda sinab ko'rishni mashq qilishni nazarda tutadi. Kommunikativ yondashuvda aynan ana shu nutq qo'nikmalari va malakalarini shakllantirish va mustahkamlash bosh maqsad qilib belgilanadi.

Kommunikativ topshiriqlar orqali yangi so'zlarni tushuntirish o'z navbatida har bir so'z yoki jumla ifodalaydigan ma'noni talabalarining barcha sezgilariga faol ta'sir qiladigan audio-vizual vositalarni namoyish qilish va emotsional ta'sir (kulgu, hazil, latifa), ekstralingvistik vositalardan (harakat, mimika, jest) foydalanib tashkkil qilishni talab qiladi.

Shundan kelib chiqqan holda darsda muayyan mavzuni kommunikativ usullarda qo'yidagi bosqichlarda tashkil qilish mumkin:

Tayyorlov bosqichi. Bu bosqichda o'qituvchi mavzu bo'yicha tushuntirilishi lozim bo'lgan yangi so'z va iboralarni aniqlaydi. So'zni yoki butun bir jumlaning tarjimasiz tushunishga yordam beradigan audio-vizual vositalarni (predmetlar, rasmlar, so'zlarning sinonimlari, antonimlari), emotsional va ekstralingvistik vositalarni tayyorlaydi. Bunda bir mashg'ulot jarayonida 8-10 tagacha yangi so'z kommunikativ topshiriq orqali tushuntirish ko'zda tutiladi. Shuningdek, mustaqil ish jarayonida birgalikda ishlaydigan talabalar juftliklari va guruhlari belgilanadi. Juftlik va guruh a'zolarini belgilashda gap boshlovchi o'kuvchi vazifasiga yaxshi o'zlashtiruvchi o'kuvchilarni, sherigi gapiga taqlid qilib javob beruvchi o'kuvchilar vazifasiga past o'zlashtiruvchi o'quvchilardan belgilaydi va ular gapirishi lozim bo'lgan jumlar yozilgan kartochkalarni tayyorlanadi.

Ko'p martalik takror orqali har bir kommunikativ topshiriqni mustahkamlash yoki avtomatlashtirish bosqichi. Bu bosqich o'quv mashg'uloti jarayonida, o'quv

laboratoriyasida va uyda o'tkazilishi ko'zga tutiladi. Har bir talabalar juftligiga kartochkalar tarqatiladi. O'qituvchi kommunikativ topshiriqni qanday bajarishni yana bir bor ko'rsatib juftliklarga o'zi bajargan har bir nutqiy harakatni takrorlash lozimligini ta'kidlaydi. Talabalar juftliklari o'qituvchi gapirgan ohangni, bajargan harakatlarini, ko'rsatgan audiovizual vositalardan foydalanib takrorlab gapirishni mashq qiladilar. Ko'p martalik takror gapirilayotgan jumlaning tasdiq, inkor, so'roq formalarda gapirishni o'rganish orqali davom ettiriladi. O'quvchilar topshiriqlarni dastlab o'z kartochkalariga qarab, keyinchalik qaramasdan bajarishga o'rganadilar. Aynan mana shu jarayonda gapirilayotgan jumlaning talaffuz ohangi, har bir leksik birlik yoki jumla ifodalagan ma'no o'zlashtiriladi va ularda tinglab tushunish ko'nikmalari shakllantiriladi. Har bir kommunikativ topshiriq juftliklar tomonidan to'liq o'zlashtirilgach, navbatdagi topshiriqni bajarishga o'tiladi. Barcha kommunikativ topshiriqlar talabalar tomonidan shu usullarda o'zlashtirilgach, o'qituvchi talabalar juftliklarini turli kombinatsiyalarda o'zgartirib, o'zaro suhbat tashkil qilishi mumkin. Navbatdagi mashg'ulotda har bir juftlikning yozib kelgan matni umumiy muhokamaga qo'yiladi. Hamkorlikda mavzu bo'yicha namunaviy matn yaratiladi va har bir juftlik o'z matniga tuzatishlar kiritadi. Matnning so'nggi variantini yaratilishida unga hazil-mutoyibalar, kulguli so'zlar kiritishga alohida e'tibor beriladi. Bunday emotsional ta'sir vositalari mavzuni osonroq o'zlashtirilishiga olib keladi. SHundan keyin o'qituvchi uyga vazifa sifatida navbatdagi darsda talabalarni baholash uchun mavzu bo'yicha erkin suhbatga tayyorlanib kelishni topshirishi mumkin. Bu esa talabani mustaqil o'z fikriga ega bo'lishga undaydi, ularni himoya qilishga va asoslay olishga o'rgatadi, ifoda usullarini amalda qo'llashga da'vat qiladi. Muhokama qilinayotgan mavzu bo'yicha talaba o'z shaxsiy fikrini ingliz tilida ifodalashda o'zgidan o'rgangan jumlasini avtomatik tarzda qaytarishi emas, balki vaziyatni to'g'ri tushunib, o'ylab o'z mushohadasi asosidagi mulohazasini ifodalashini ko'zlaydi. Bunday darsda talabadan o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish yo'llarini, tadbirini, chorasini qidiruvchi izchil mutaxassis tayyorlash nazarda tutiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003. – 174 b.
2. Davletshin M.G. va boshqalar. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – T.: O'qituvchi, 1997. -134 b.
3. Yo'ldoshev J/. "Ta'lim yangilanish yo'lida". – T.: O'qituvchi. 2000. – 207 b.

4. Nishonaliyev U. Ta'lim standarti va pedagogik innovatsiyalar. // Xalq ta'limi. 1999. № 6. 28-31 b.

5. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash texnologiyalari. Toshkent: 2000 y. - 46 b.

6. Ta'lim texnologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1999. - 71 b.

7. Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar, yechimlar. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: 1999. - 212 b.

